

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”
Buxoro davlat pedagogika instituti
rektori **B.B.Ma’murov**
2026-yil “5” sentabr



MUTAXASSISLIK (10.00.01-o‘zbek tili) FANIDAN TAYANCH
DOKTARANTURAGA QABUL DASTURI VA BAHOLASH MEZONLARI

Annotatsiya

Ushbu dastur 10.00.01 - "O'zbek tili" ixtisosligi bo'yicha kirish imtihoni mutaxassislik fanidan imtihon bo'yicha mutaxassislar, talabgorning nazariy va kasbiy tayyorgarlik darajasini, uning ushbu fanning shakllanishi va rivojlanishi tarixini, umumiy konsepsiyalari va metodologiya masalalarini, manbalarini, shu asosida bilimlar tarmog'ining asosiy nazariy va amaliy muammolarini, mavjud materialni nechog'lik bilishini aniqlab berishi, talabgorning ilmiy adabiyotni, shu jumladan, chet el davriy nashrlarini hamda ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy usullarini qanchalik egallaganlik darajasini aniqlash doirasida tuzilgan bo'lib, unda o'qitish metodikasining umumiy masalalari bilan bir qatorda har bir fanning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi tushunchalar, bilim, ko'nikma va malakalarga qo'yiladigan talabalar, imtihon savollaridan namunalar keltirilgan.

Ushbu dastur institut Kengashining 2026 -yil "28" avgust -
dagi 1 sonli majlisida tasdiqlangan.

Tuzuvchi:  filologiya fanlari doktori (DSc), prof. X.A.Xaitov

Taqrizchilar:  filologiya fanlari doktori(Dsc), prof. D.B.Ahmedova

 filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) G.R.Mirxanova

Kirish. Hozirgi o'zbek adabiy tilining dialektal tarkibi. Hozirgi o'zbek adabiy tiliga boshqa tillarning ta'siri. Hozirgi o'zbek adabiy tili tushunchasi. Uning lisoniy imkoniyat ekanligi va voqelanish shakllari: adabiy va noadabiy, og'zaki va yozma shakllari, uslubiy ko'tinishlari. Hozirgi o'zbek adabiy tilining dialektal asoslari. O'zbek tili rasmiy uslubi asosida davlat tili sifatida. *Davlat tili* tushunchasi va uning yondosh hodisalar (milliy til, xalq tili, xalqaro til, rasmiy til kabi)dan farqi.

Hozirgi o'zbek tilini ilmiy o'rganish bosqichlari. XX asrgacha bo'lgan o'zbek tili ilmi. O'zbek an'anaviy tilshunosligi. O'zbek substansial tilshunosligi. Hozirgi o'zbek tilining yangi lingvistik paradigmalarda ilmiy talqin qilinishi.

Hozirgi o'zbek tili sathlari: fonetik-fonologik sath, leksik sath, grammatik sath. "Hozirgi o'zbek tili" fanining bo'limlari. Til sathlari va tilshunoslik bo'limlari munosabati.

Hozirgi o'zbek tilida lison, nutq, me'yor munosabati. Nutq til imkoniyatlarining lisoniy va nolisoniy omillar ta'sirida voqelangan holati ekanligi. Lisonning umumiylik, mohiyat, imkoniyat, voqelik (UMIS), nutqning alohidalik, hodisa, voqelik, oqibat (AHVO) tabiatiga egaligi. Lisoniy va nutqiy birliklar. Me'yor lison va nutqni bog'lovchi hodisa sifatida.

Hozirgi o'zbek tilida lisoniy munosabatlarning turlari: paradigmatic munosabat, sintagmatik munosabat, ulaming xususiyatlari. Paradigmatic munosabatlarda lisoniy ziddiyatlar. O'zbek tili tizimida lisoniy ziddiyatning turlari: noto'liq (privativ) ziddiyat, teng qiymatli (ekvipolent) ziddiyat, darajali (gradual) ziddiyat, ularning xususiyatlari.

Hozirgi o'zbek tili hodisalarini tasniflash asoslari. Tasnif belgisi. Tasnifning turlari.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining fonetik sathi va fonologiyasi

O'zbek tili fonetikasi va fonologiyasi tushunchalari. Empirik soha sifatidagi fonetika nazariy soha sifatidagi fonologiyaning asosi ekanligi. O'zbek tili fonologiyasi va uning asosiy birligi. Fonema va tovush munosabati, unda lison va nutq munosabatining aks etishi. Fonemaning turlari. Unli fonemalar va ularning substansial xususiyatlari, unli fonemalarni tasniflash asoslari. Undosh fonemalar va ularning substansial xususiyatlari, undosh fonemalarni tasniflash asoslari. Fonemalararo lisoniy ziddiyatlarning voqelanishi.

O'zbek tili fonemalari lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi. Nutqiy voqelanishda fonema lisoniy imkoniyatlarining nutqiy sharoit va vaziyatga moslashishi. Fonemalarning nutqiy voqelanishiga ta'sir qiluvchi lisoniy omillar: yondosh tovushlar, urg'u, bo'g'in, ohang va b. Fonemalarning nutqiy voqelanishiga ta'sir qiluvchi nolisoniy omillar (nutqiy vaziyat va sharoit, so'zlovchi shaxs va b.), ularning lisoniy omillar bilan uyg'unlashuvi.

Hozirgi o'zbek tilining leksik sathi va leksikologiya:

Leksik sath, uning xususiyatlari va birligi. Leksema leksik sath birligi sifatida. Leksema va so'z, ularning xususiyatlari. Leksema va so'zda lison va nutq munosabatining aks etishi. Leksemaning tuzilishi, tub/yasalganligi, ma'no ko'lam, genezisi, qo'llanishi va boshqa belgilariga ko'ra turlari, munosabatlari. Semema va nutqiy ma'no, ularning turlari va xususiyatlari, uzual va okkazional

ma no. Sema va uning xususiyatlari, semaning turlari. Leksemaning nutqiy voqelanishi, unga ta'sir qiluvchi lisoniy (morfologik, sintaktik) va nolisoniy (nutqiy vaziyat, sharoit, shaxsiy sifatlar) omillar hamkorligi. So'zning ma'noviy taiaqqiyoti. Leksema ma nosining torayishi va kengayishi. Hosila ma'no vujudga kelish yo'llari va usullari: metafora va vazifadoshlik; metonimiya va sinekdoxa.

O'zbek tilida leksik-semantik sistemalar. Leksema - shakl va ma'no unsuridan iborat sistema sifatida. Lug'aviy qator. Lug'aviy mikrosistema. Lug'aviy-ma'noviy guruh. Lug'aviy-mavzuviy guruh. Lug'aviy-mavzuviy to'da. Lug'aviy-mazmuniy maydon.

O'zbek tilida paradigmatic munosabatlar. Sinonimiya. Sinonimik qator. Dominanta. Lisoniy sinonimlar, nutqiy sinonimlar. Sinonimik darajalanish (graduonimiya). Lug'aviy sinonimlarning markaz va qurshov qatlami.

Leksik antonimiya. Antonimik juftlik. Lisoniy va nutqiy antonimiya.

Omonimlar, omoformalar. Omonimiyaga yondosh hodisalar: omofonlar va omograflar. Paronim va paranomaziya.

Giponimiya, graduonimiya.

O'zbek tili leksikasida lisoniy ziddiyatlarning amal qilishi.

O'zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti. O'zbek tili leksikasida eskirgan qatlam va uning turlari: arxaizmlar va istorizmlar. So'z o'zlashtirish. O'zlashma va olinma so'zlar. So'z olish yo'llari.

O'zbek tili leksemalarining ishlatilish doirasi. Ishlatilish doirasi chegaralangan va chegaralanmagan leksika. Ishlatilish doirasi chegaralangan leksikaning turlari.

O'zbek tili leksikasining emotsional-ekspressivlikka munosabati. Ekspressivlikning ifodalanish usullari.

O'zbek tilida onomastik leksika, uning turlari va tarkibi.

O'zbek tili frazeologiyasi. Frazema. Frazeologik ma'no, uning turlari. Frazeologik-semantik munosabatlar. Frazemalarning nutqiy voqelanishi. Frazemaning nutqiy voqelanishi, unga ta'sir qiluvchi lisoniy (morfologik, sintaktik) va nolisoniy (nutqiy vaziyat, sharoit, shaxsiy sifatlar) omillar hamkorligi.

Perifraza. Perifrazalarning turlari, tarkibi, uslubiy xususiyatlari.

Leksikografiya. Lug'at va uning turlari. Umumiy va maxsus, filologik va qomusiy, alifboli va sistemali, akademik va ta'limiy, bosma va elektron, yopiq (doimiy yangilanmaydigan) va ochiq (doimiy yangilanib turadigan) lug'atlar. O'zbek o'quv leksikografiyasi muammolari va o'quv lug'atlari. Til koipusi.

O'zbek tili morfemikasi, derivatsiyasi va morfofonologiyasi:

Morfema morfemika birligi sifatida. Morfemaning leksemaga munosabati. Morfemaning xususiyatlari, variantlari, tiplari: deiivatsion ya grammatik morfemalar. Derivatsion morfemaning turlari. Giammatik morfemaning turlari: lug'aviy shakl hosil qiluvchi morfemalar, sintaktik shakl hosil qiluvchi morfemalar. Morfemalarda shakl va ma no munosabatlari. Morfema lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unga ta sii qiluvchi lisoniy (leksik, sintaktik) va nolisoniy (nutqiy vaziyat, sharoit, shaxsiy sifatlai va b.) omillar hamkorligi.

O'zbek tili derivatsiyasi va so'z yasalishi. So'z yasash qolipi. So'z yasash qolipi UMIS, yasama so'z AHVO sifatida. So'z yasash qolipining turlari: unumli va unumsiz, mahsuldor va kammahsul qoliplar. Yasama so'zlarning xususiyatlari, tiplari va turlari. Yasama so'z nutqiy, yasalgan so'z lisoniy hodisa ekanligi. Yasama so'z taraqqiyotida ixtisoslashish, soddalashish, tublashish hodisalari. So'z turkumlarida yasaliş va yasama so'zlarning leksemalashishi. So'z turkumlarining ko'chishi. So'z turkumlarida transpozitsiya, konversiya va polifunksionallik. Morfofonologiya. Lisoniy morfonologik altematsiyalar. Morfonema - morfonologiyaning til birligi sifatida.

Morfologiya:

Grammatikaning tarkibiy qismlari. Morfologiya, grammatik shakllangan so'z uning birligi sifatida. O'zbek tilida leksemani grammatik shakllantiruvchi vosita va uning turlari. Grammatik ma'no, uning turlari: morfologik va sintaktik ma'no, umumiy, oraliq va xususiy grammatik ma'no, kategorial, yondosh va hamroh ma'no, ularning xususiyatlari va turlari.

O'zbek tili grammatik (morfologik) kategoriyalari va ulaming turlari: lug'aviy shakl hosil qiluvchi kategoriyalar, lug'aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar, sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar. Grammatik shakl lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unga ta'sir qiluvchi lisoniy (leksik, sintaktik) va nolisoniy (nutqiy vaziyat, sharoit, shaxsiy sifatlar va b.) omillar hamkorligi.

O'zbek tilida so'z turkumlari. So'zlarni turkumlash tamoyillari, tasnif asoslari. Mustaqil so'z turkumlari, ularning o'rganilish tarixiga sharh. Mustaqil so'z turkumlarining xususiyatlari, tiplari: o'zgaruvchi va o'zgarmas turkumlar, G'ayrioddiy ma'noli turkumlar (olmosh, taqlid). Mustaqil so'z turkumlari tartibi.

Fe'l. Fe'lning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Fe'lning umumiy grammatik ma'nosi. Fe'lning lug'aviy-grammatik guruhlari. O'timli va o'timsiz fe'llar. Fe'lning nutqdagi turlari: tuslangan va tuslanmagan ko'rinishlari; tuzilish turlari, to'liqsiz fe'llaming so'z turkumlari sistemasidagi o'rni.

Fe'lning tasniflovchi kategoriyalari. Nisbat kategoriyasi va uning shakllari tizimi. Nisbat kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nosi ulaming substansial mohiyati sifatida. Nisbat kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi. Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nosi ulaming substansial mohiyati sifatida. Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasining tasdiq-inkor kategoriyasiga munosabati. Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar munosabati.

Fe'lning o'zgalovchi kategoriyasi va uning shakllari: sifatdash, ravishdash, harakat nomi. O'zgalovchi kategoriya va shakllari umumiy grammatik ma'nosi ulaming substansial mohiyati sifatida. Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar munosabati.

Fe'ning harakat tarzi kategoriyasi murakkab tarkibli kategoriya sifatida. [Ravishdosh+ko'makchi fe'l] harakat tarzi kategoriyasi shakli sifatida. Harakat tarzi kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nosi. Harakat tarzi kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar munosabati.

Fe'ning nokategorial shakllari tizimi.

Ot va uning o'rganilish tarixi. Otning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Otning umumiy grammatik ma'nosi. Otning 1 ug'aviy-grammatik guruh lari.

Otning tasniflovchi kategoriyasi. Son kategoriyasi va uning shakllari. Son kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nosi. Son kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar munosabati.

Otning nokategorial shakllari.

Sifat va uning o'rganilish tarixi. Sifatning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Sifatning lug'aviy-grammatik guruhlari. Asliy va nisbiy sifatlar.

Daraja sifatning tasniflovchi kategoriyasi sifatida. Daraja kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillarning uyg'unlashuvi.

Sifatning nokategorial shakllari: kuchaytirma va ozaytirma shakllari.

Son va uning o'rganilish tarixi. Sonning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Sonning lug'aviy-grammatik guruhlari va tasniflanishi. Son grammatik shakllarining lug'aviy ma'noga ta'sir qilish imkoniyatlari. Son shakllari umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillarning uyg'unlashuvi. Numerativlar. Numerativli birikuvlarning qoliplari.

Ravish va uning o'rganilish tarixi. Ravishning mustaqil so'z turkumi sifatidagi o'ziga xos grammatik xususiyatlari. O'zgarmaslik ravishning grammatik belgisi sifatida. Ravishning lug'aviy-grammatik guruhlari.

Taqlid va uning o'rganilish tarixi. Taqlidning mustaqil so'z turkumi sifatidagi o'ziga xos grammatik xususiyatlari. O'zgarmaslik taqlidning grammatik belgisi sifatida. Taqlidning lug'aviy-grammatik guruhlari.

Olmosh va uning o'rganilish tarixi. Olmoshning o'ziga xos ishoraviy (deyktik) tabiati, mustaqil so'z turkumi sifatidagi o'ziga xos grammatik xususiyatlari. Olmoshlarning matndagi o'tni. Sintaktik imkoniyatlari.

Sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar va ularning turlari: egalik, kelishik va kesimlik kategoriyasi. Ularning umumturkumiy va sintaktik vazifa uchun xoslangan kategoriyalar ekanligi.

Egalik kategoriyasi va uning shakllari paradigmasi. Egalik kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nosi. Egalik kategoriyasining turli mustaqil so'z turkumlarida qo'llanish xususiyatlari. Egalik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi.

Kelishik kategoriyasi va uning shakllari paradigmasi. Kelishik kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nosi. Kelishik kategoriyasining turli mustaqil so'z turkumlarida qo'llanish xususiyatlari. Kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi.

Kesimlik murakkab tarkibli kategoriya sifatida. Kesimlik kategoriyasining tarkibi (shaxs-son, zamon, tasdiq/inkor, modallik kategoriyalari), uning shakllari paradigmasi. Shaxs-son kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nolari. Zamon kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nolari. Tasdiq-inkor kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nolari.

Kesimlik kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nosi. Kesimlik kategoriyasining turli mustaqil so'z turkumlarida qo'llanish xususiyatlari. Kesimlik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi. Bog'lama.

Yordamchi so'zlar va ularning turlari: ko'makchi, bog'lovchi, yuklama.

Ko'makchi, uning o'rganilish tarixi, xususiyatlari, tiplari va turlari. Ko'makchi lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi.

Bog'lovchi, uning o'tganilish tarixi, xususiyatlari, tiplari va turlari. Bog'lovchi lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar munosabati.

Yuklama, uning o'tganilish tarixi, xususiyatlari, tiplari va turlari. Yuklama lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar uyg'unligi.

So'z-gaplar, ulaming o'tganilish tarixi, xususiyatlari, tiplari va turlari. So'z-gaplar lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar munosabati.

Sintaksis: Sintaksis va uning o'tganish predmeti. Sintaktik birliklar: so'z birikmasi va gap. O'zbek tilida lisoniy sintaktik qolip va uning turlari: so'z birikmasi qoliplari va gap qoliplari, ulaming qurilish xususiyatlari.

Valentlik, uning tildagi mohiyati. Valentlik va sintaktik aloqa UMIS va AHVO dialektikasining sintaktik sathdagi voqelanishi sifatida.

Erkin birikmalar va uning turlari. So'z birikmasi, uning xususiyatlari, tarkibi, tiplari va turlari, yondosh hodisalarga munosabati. So'z birikmasi lisoniy sintaktik qolipining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar munosabati. So'z birikmasi qoliplarida erkin birikuv omillari: ma'noviy, shakliy va joylashuv omillari. So'z birikmasida tobe aloqaning turlari: moslashuv, boshqaruv, bitishuv aloqalari.

Gap va uning qurilish turlari. Sodda gap, uning lisoniy va nutqiy xususiyatlari. Sodda gap qolipi va uning turlari. Sodda gapning lisoniy belgilar asosidagi turlari: yig'iq va yoyiq gap, bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gap. Sodda gap qoliplari. Gap bo'laklari. Gap bo'laklarida darajalanish (kesim - ega - hol - to'ldiruvchi - aniqlovchi). Gap markazi. Gap va so'z kengaytiruvchilari.

Kesim - gap markazi va uning uyushtiruvchisi. Kesimning turlari: mustaqil va nomustaqil kesim, sodda va murakkab kesim. Fe'l kesim va ism kesim. Fe'l kesim, unda kesimlik kategoriyasining voqelanish imkoniyatlari kengligi. FeT kesimning tuzilish turlari va koTinishlari. Ism kesim, uning grammatik shakli, ifodalanishi. BogTama, uning koTinishlari. Ism kesim, unda kesimlik kategoriyasining voqelanish xususiyatlari. FeT kesimning tuzilish turlari va ko'rinishlari.

Ega, uning gap qurilishidagi o'rni. Egali va egasiz gaplar. Eganing ifodalanishi.

Hol, uning gap qurilishidagi oTni, ma'noviy turlari, ifodalanishi.

ToTdiruvchi, uning gap qurilishida so'z kengaytiruvchisi sifatidagi oTni, ifodalanishi. ToTdiruvchilarning turlari.

Aniqlovchi, uning gap qurilishidagi oTni, ifodalanishi. Aniqlovchining turlari.

Sodda gapning murakkablashuvi: gapning ajratilgan bo'laklari, uyushiq bo'laklar, undalma, kirish va kiritma kengaytiruvchilar.

Sodda gap lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar munosabati.

Qo'shma gap. Qo'shma gap tasnifi asoslari. Qo'shma gapning qurilishiga koTa tasnifi: teng munosabatli, tobe munosabatli, mutanosib munosabatli qo'shma gaplar. Qo'shma gapning tarkibidagi bog'lovchi vositalariga koTa tasnifi: faqat ohang vositasida, yuklamalar vositasida, teng bog'lovchilar vositasida, ergashtiruvchi bog'lovchilar vositasida, nisbiy so'zlar vositasida bog'langan qo'shma gap.

Qo'shma gapning tarkibiy qismlari orasidagi ma'noviy munosabatga ko'ra turlari: qismlari payt, oTin, sabab, birin-ketinlik, bir vaqtdalik, izohlash, qiyoslash va b. ma'noviy munosabatlar asosida bog'langan qo'shma gaplar. Qo'shma gapning qismlari orasidagi funksional munosabatlarga ko'ra turlari: kesim tobe gapli, ega tobe gapli, hol tobe gapli, to'ldiruvchi tobe gapli, aniqlovchi tobe gapli qo'shma gap. Qo'shma gap tarkibiy qismlarining irreallikka munosabatiga ko'ra tasnifi.

Murakkab qo'shma gap. Murakkab qo'shma gaplarda sintaktik aloqa turlari.

Qo'shma gap lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar munosabati.

O'zga gapli qurilmalar, ularning turlari, lisoniy xususiyatlari, nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi.

Uyushgan gap, uning sodda va qo'shma gap oralig'ida tutgan oTni.

Uyushgan gapning lisoniy-sintaktik qolipi, turlari, nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar munosabati.

MINIMUM SAVOLLARI:

1. Kategoriya tushunchasi. Grammatik kategoriya ko'rinishlari va ularning tasnifi.
2. Leksemalarni ma'noviy, morfologik, sintaktik tabiatiga ko'ra guruhlash.
3. So'z turkumlari va ularning tasnifi masalasi.
4. Fe'l. Uning umumiy grammatik ma'nosi. Fe'l valentligi.
5. Fe'l yasalishi. Ularning yasallish qoliplari.
6. Fe'larni tasniflovchi kategoriyalar.
7. Grammatik shakl va grammatik ma'no.
8. Ism so'zlar va ularning xususiyatlari.
9. Grammatik ma'no ifodalash usullari.
10. Grammatik kategoriyalarni tasniflash asoslari.
11. UMIS va AHVOning lisoniy tizimda voqelanishi.
12. Til, lison va nutq munosabati.
13. Til sathlari va birliklari.
14. Paradigmatik munosabat, sintagmatik munosabat, ularning xususiyatlari.
15. O'zbek tili tizimida lisoniy ziddiyatning turlari.
16. O'zbek tili fonetikasi va fonologiyasi tushunchalari. Fonema va tovush munosabati.
17. Fonetikaning turlari, ularning maqsad va vazifalari.
18. O'zbek tili nutq tovushlarining fizik-akustik aspekti.
19. O'zbek tili nutq tovushlarining anatomik-fiziologik aspekti.
20. Fonetikaning lingvistik-funksional aspekti. Fonetikaning obyekti.
21. Segment va supersegment birliklar.
22. Unli fonemalar paradigmasi va unilarning asosiy belgilari.
23. Undosh fonemalar paradigmasi.
24. Kombinator va pozitsion o'zgarishlar.
25. Fonologik oppozitsiya. Morfonologiya.
26. Bo'g'in va urg'u.
27. Leksikologiya va uning turlari.
28. Leksik sath, uning xususiyatlari va birligi.
29. Leksema va so'z, ularning xususiyatlari. Leksemaning ikki plani.
30. Uzual va okkazional ma'no.
31. Semema va sema. Semaning turlari.
32. Harakat tarzi shakllari paradigmasi. Ularning hosil bo'lish usullari.
33. So'z-gaplar. Ularning morfologik tabiati.
34. Taqlid so'zlar turkumi.
35. So'zlarning sintaktik (aloqa-munosabat) shakllari. Egalik kategoriyasi.
36. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida so'z turkumlari va ularning tasnifi.
37. O'zbek tilshunosligida ravish so'z turkumining o'rganilishi.
38. Son so'z turkumi. Sonning lug'aviy ma'no guruhlari.
39. So'z yasash qolipi. Yasalgan va yasama so'z xususida.

40. Kesimlik kategoriyasi.
41. XX asr o'zbek lug'atchiligi yutuqlari va muammolari. Terminologik leksikografiya.
42. Umumiy va xususiy (maxsus) lug'atlar.
43. Paradigmatik va sintagmatik munosabat.
44. Tillarni tasniflashning ahamiyati. Agglyutinativ va flektiv tillarning o'zaro zid jihatlari. Amorf tillar.
45. Grafika va orfografiya.
46. Orfoepiya haqida maTumot.
47. So'z va gap kengaytiruvchilari haqida maTumot.
48. FeTning o'zgalovchi kategoriyasi va uning shakllari.
49. FeTning harakat tarzi kategoriyasi murakkab tarkibli kategoriya sifatida.
50. Sifatning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Sifatning lug'aviy-grammatik guruhlari. Asliy va nisbiy sifatlar.
51. Sonning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Numerativlar.
52. Olmoshning o'ziga xos ishoraviy (deyktik) tabiati, mustaqil so'z turkumi sifatidagi o'ziga xos grammatik xususiyatlari. Sintaktik imkoniyatlari.
53. Sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar va ularning turlari: egalik, kelishik va kesimlik kategoriyasi.
54. Egalik kategoriyasi va uning shakllari paradigmasi. Egalik kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi.
55. Kelishik kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nosi. Kelishik kategoriyasining turli mustaqil so'z turkumlarida qoTlanish xususiyatlari.
56. Kesimlik murakkab tarkibli kategoriya sifatida. Shaxs-son kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nolari.
57. Zamon kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nolari. Tasdiq-inkor kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nolari.
58. Ko'makchi, uning o'rganilish tarixi, xususiyatlari, tiplari va turlari.
59. BogTovchi, uning o'rganilish tarixi, xususiyatlari, tiplari va turlari.
60. Yuklama, uning o'rganilish tarixi, xususiyatlari, tiplari va turlari. Yuklama lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar uyg'unligi.
61. O'zbek tilida lisoniy sintaktik qolip va uning turlari: so'z birikmasi qoliplari va gap qoliplari, ulaming qurilish xususiyatlari.
62. So'z birikmasi lisoniy sintaktik qolipining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar munosabati. So'z birikmasi qoliplarida erkin birikuv omillari: ma'noviy, shakliy vajoylashuv omilari.
63. So'z birikmasida tobe aloqaning turlari: moslashuv, boshqaruv, bitishuv aloqalari.
64. Gap va uning qurilish turlari. Sodda gap, uning lisoniy va nutqiy xususiyatlari. Sodda gap qolipi va uning turlari.

65. Sodda gapning lisoniy belgilar asosidagi turlari: yig'iq va yoyiq gap, bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gap.
66. Gap bo'laklari. Gap bo'laklarida darajalanish.
67. Kesim - gap markazi va uning uyushtiruvchisi. Kesimning turlari: mustaqil va nomustaqil kesim, sodda va murakkab kesim.
68. Fe'l kesim va ism kesim. Bog'lama, uning ko'inishlari.
69. Ega, uning gap qurilishidagi o'ini. Egali va egasiz gaplar. Eganing ifodalanishi.
70. Hol, uning gap qurilishidagi o'mi, ma'naviy turlari, ifodalanishi.
71. To'ldiruvchi, uning gap qurilishida so'z kengaytiruvchisi sifatidagi o'mi, ifodalanishi. To'ldiruvchilarning turlari.
72. Aniqlovchi, uning gap qurilishidagi o'mi, ifodalanishi. Aniqlovchining turlari.
73. Sodda gapning murakkablashuvi: gapning ajratilgan bo'laklari, uyushiq bo'laklar, undalma, kirish va kiritma kengaytiruvchilar.
74. Qo'shma gap. Qo'shma gap tasnifi asoslari. Qo'shma gapning qurilishiga ko'ra tasnifi.
75. Qo'shma gapning tarkibidagi bog'lovchi vositalariga ko'ra tasnifi.
76. Qo'shma gapning tarkibiy qismlari orasidagi ma'naviy munosabatga ko'ra turlari.
77. Qo'shma gapning qismlari orasidagi funktsional munosabatlarga ko'ra turlari.
78. Murakkab qo'shma gap. Murakkab qo'shma gaplarda sintaktik aloqa turlari.
79. O'zga gapli qurilmalar, ulaming turlari, lisoniy xususiyatlari, nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi.
80. Uyushgan gap, uning sodda va qo'shma gap oralig'ida tutgan o'mi. Uyushgan gapning lisoniy-sintaktik qolipi, turlari, nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar munosabati.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Rahbariy adabiyotlar

1. Karimov LA. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -Toshkent: O'zbekiston, 2016.

Asosiy adabiyotlar

1. Abduazizov A., Sheremetova A. Общее языкознание. - Ташкент, 2004.
2. Baskakov N.A., Sodiqov A.S., Abduazizov A. Umumiy tilshunoslik. — Toshkent, 1979.
3. Bushuy A.M., Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. -Toshkent: Fan, 2007.
4. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek

adabiy tili. O'quv qo'llanma. - Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.

5. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. - Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.

6. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. - Toshkent: O'qituvchi, 2003.

7. Abduazizov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi- Toshkent, 2010.

8. Tursunov U. va boshqalar. O'zbek adabiy tili tarixi. Toshkent: Fan, 1995.

9. Abduraxmonov G'., Shukurov Sh. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi.

Toshkent: O'zbekiston faylasuflarining milliy jamiyati, 2008.

10. Abdurahmonov G'., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. - Toshkent: O'qituvchi, 1982.

Qo'shimcha adabiyotlar

8. Jamolxonov H. O'zbek tilining nazariy fonetikasi. O'quv qo'llanma. - Toshkent: Fan, 2009.

9. Zamonaviy o'zbek tili. Morfologiya. Darslik- Toshkent: Mumtoz so'z, 2008.

10. Zamonaviy o'zbek tili. Sintaksis. Darslik. - Toshkent: Mumtoz so'z, 2013.

11. Mirtojiev M. O'zbek tili fonetikasi. - Toshkent: Fan, 2013.

12. Nazarov K., Egamberdiyev B. O'zbek tili ishora-imlo qoidalari.

Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. - Toshkent, 2010.

13. Nehnatov H., Bozorov O. Til va nutq. - Toshkent: O'qituvchi, 1989.

14. Nehnatov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 1995.

15. Nurmonov A., Yo'ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. - Toshkent, 2001.

16. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo'nalishlari. - Andijon, 2006.

17. Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. - Toshkent, 2010.

18. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. Oliy o'quv yurtlari o'zbek filologiyasi fakultetlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. - Toshkent: O'zbekiston, 2002.

19. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixojayeva S. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. - Toshkent: Fan, 1992.

20. Rahmatullayev Sh. Til qurilishining asosiy birliklari. - Toshkent, 2002.

21. Rahmatullayev Sh. Sistem tilshunoslik asoslari. - Toshkent, 2007.

22. Punktatsiya. Oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlari talabalari uchun qo'llanma. - Toshkent: O'qituvchi, 1996.

23. O‘rinboyev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida sintaktik munosabatlar (O‘quv qo‘llanma). - Samarqand: SamDU nashri, 2002.

24. Hojiyev A. O‘zbek tili so‘z yasalishi tizimi. Oliy o‘quv yurtlarining filologiya fakultetlari o‘qituvchi va talabalari uchun qo‘llanma. - Toshkent: O‘qituvchi, 2007.

25. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. Darslik. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.

Mutaxassislik fanidan minimuni topshirishda tadqiqotchilar bilimini baholash

MEZONLARI

Minimum imtihonida tanlangan mutaxassislik bo‘yicha bilim darajasini belgilovchi fanlardan sinov o‘tkaziladi, baholash **mezoni 0** balldan **100** ballgachani tashkil qiladi. Sinovda tadqiqotchining tanlangan mutaxassislik bo‘yicha nazariy bilimi aniqlanib baxolanadi.

Har bir savol bo‘yicha javoblarni baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

- nazariy va amaliy bog‘liqlikda yoritilgan;
- mazmunni yoritishda mustaqil ilmiy mushohada;
- nom va ilmiy atamalarni bilish darajasi;
- ilmiy mushohada yuritish iqtidori to‘la ko‘rinsa;
- keltirilgan faktlar hozirgi davrdagi jarayonlar, o‘zgarishlar bilan o‘zaro aloqadorlikda ochib berilgan, chuqur ilmiy tahlil etilgan hamda xronologik jihatdan to‘g‘ri yoritilgan;
- o‘z fikrini tizimli mustaqil tahlil qilgan, erkin va mustaqil ifoda etilgan;
- fikr aniq va izchil ifodalangan, barcha savollar mutlaqo to‘liq yoritilgan va bunda tegishli ilmiy adabiyotlarga tayanilgan har tomonlama chuqur asoslangan javoblarga **a‘lo** baho qo‘yiladi.

Barcha savollarga nisbatan to‘liq javob berilgan, fikr izchil ifodalangan, lekin bunda tegishli ilmiy va uslubiy adabiyotlarga kamroq e‘tibor berilgan bo‘lsa, **yaxshi** baho qo‘yiladi.

Barcha savollarga qisman javob bera olgan va ma’lum darajada ilmiy, o‘quv-uslubiy adabiyotlaridan foydalangan bo‘lsa, **qoniqarli** baho qo‘yiladi.

Fikr aniq ifoda etilmagan, bironta ham savolga qisman bo‘lsada to‘g‘ri javob berilmagan, tegishli ilmiy, o‘quv-uslubiy adabiyotlardan mutlaqo foydalanilmagan javoblar uchun **qoniqarsiz** baho qo‘yiladi.

JAMI: 100 ball, shundan:

1-savolga javob: maksimal - 25 ball;

2-savol javob: maksimal - 25 ball;

3-savol javob: maksimal - 25 ball.

4- savol javob: maksimal - 25 ball.

II 1) Fikr aniq va izchil ifodalangan, barcha savollar mutlaqo to'liq yoritilgan va bunda tegishli ilmiy adabiyotlarga tayanilgan, birinchi manbaalarda bayon qilingan fikrlar har tomonlama chuqur asoslanilgan javoblarga ja'mi 86-100 ball - *a'lo* baho qo'yiladi.

2) Barcha savollarga nisbatan to'liq javob berilgan, fikr izchil ifodalangan, lekin bunda tegishli ilmiy va uslubiy adabiyotlarga kamroq e'tibor berilgan bo'lsa, ja'mi 71-85 ball- *yaxshi* baho qo'yiladi.

3) Barcha savollarga qisman javob bera olgan va ma'lum darajada adabiyotlardan foydalangan bo'lsa, ja'mi 56-70 ball- *qoniqarli* baho qo'yiladi.

4) Fikr aniq ifoda etilmagan, bironta ham savolga qisman bo'lsa-da javob berilmagan, tegishli ilmiy-uslubiy adabiyotlardan mutlaqo foydalanilmagan javoblar uchun 56 dan past ball - *qoniqarsiz* baho qo'yiladi.

Sinov topshirish shakli	Og'zaki
Ajratilgan vaqt	25 daqiqa
Savollar soni	5 ta
Har bir savol uchun belgilangan ball	20 ball
Maksimal ball	100 ball